

“O‘zbekiston temir yo‘llari” DATK
Toshkent temir yo‘l muxandislari instituti

Kafedra “Buxgalteriya hisobi va audit”

Bitiruv malakaviy ish

**Mavzu: “Korxonada buxgalteriya hisobi va hisoboti
ma’lumotlarini avtomatlashtirilgan qayta ishlov berish
texnologiyasi”**

(Buxoro MTU mintaqaviy temir yo‘l uzeli)

Bitiruvchi : Muyinova A.

Raxbar: Sultanova S.M.

Toshkent 2012

Kirish

O'zbekiston bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga rivojlanayotgan mamlakatdir. Milliy iqtisodiyotimizning rivojida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga tadbiq etish va uning dolzarbligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada "Axborot to'g'risida"gi, "Elektron tijoratlashtirish to'g'risida", shuningdek "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonunlar asosida bir qancha me'yoriy hujjatlar va dasturlar ishlab chiqildi va bu dasturlarning vazifasi kompyuter va axborot texnologiyalarning ilm-fan va ta'lim sohalariga, milliy iqtisodiyot tarmoqlariga, boshqaruv va biznesga tadbiq etish, shuningdek aholini zamonaviy texnologiyalariga jalb qilish jarayonida sharoitlarni yaratishdan iborat.

Temiryo'l transporti tarmog'ida "“O'zbekiston temir yo'llari” Davlat Aksiyadorlik Temiryo'l Kompaniyasida 2008-2015-yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish to'g'risida” Dastur qabul qilingan. Ushbu dasturda ma'lumotlar uzatish tarmog'ini yaratish maqsad qilib qo'yilgan. Ushbu tarmoq "O'zbekiston temir yo'llari” Davlat Aksiyadorlik Temiryo'l Kompaniyasida kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning asosiy kaliti hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, yakuniy bitiruv malakaviy ishining mavzusi "Korxonada buxgalteriya hisobi va hisobotini avtomatlashtirilgan qayta ishlov berish texnologiyasi" deb nomlandi va mavzuning dolzarbligi belgilandi .

Yakuniy bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ob'yekti sifatida temiryo'l transporti tuzilmaviy korxonasi ya'ni Buxoro mintaqaviy temiryo'l uzeli (Buxoro MTU) ko'rib chiqildi

Yakuniy bitiruv malakaviy ishini yozishdan maqsad tuzilmaviy temiryo'l korxonalarida zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalari asosida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish texnologiyalarini o'rganish va tahlil qilishdan iborat.

Maqsaddan kelib chiqqan holda mavzuni yoritishda quyidagi vazifalar yechildi:

1.Korxonada buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlarini yuritish

jarayonlarini o'rganish;

2.Temiryo'l tuzilmaviy korxonasida mavjud axborot tizimlari va texnologiyalarini o'rganish va tahlil qilish;

3.Buxgalteriya hisobi va hisobotini qayta ishlash texnologiyalarining zamonaviy holatini o'rganish;

4.Temiryo'l tuzilmaviy korxonasida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirilgan tarzda yuritish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.

Mavzuni yoritish bo'yicha quyidagi qonuniy va me'yoriy hujjatlar axborot manbalari sifatida ko'rib chiqilda va o'rganildi:

- "Buxgalteriya to'g'risida"gi Qonun;
- Buxgalteriya hisobining milliy andozalari;
- Temiryo'l transportidagi me'yoriy hujjatlar;
- Korxonaning ustavi hamda yillik buxgalteriya va moliyaviy hisobotalari.

Yakuniy bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob hamda xulosa va takliflardan iborat.

Kirish qismida tanlangan mavzuning nomi, uning dolzarbligi, yakuniy bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ob'yekti, maqsadi, vazifalari va axborot manbalari aks ettirilgan.

Birinchi bob "O'zbekiston Buxoro MTUda buxgalteriya hisobi axborot tizimlarining tahlili" bo'lib, unda Buxoro MTUda buxgalteriya hisobini yuritish xususiyatlari va hisob siyosati, Buxoro MTUning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarining tahlili keltirilgan.

"Buxoro mintaqaviy temiryo'l uzeli buxgaltreriya hisobi axborot tizimi" deb nomlanadigan ikkinchi bobda Buxoro mintaqaviy temiryo'l uzeli buxgaltreriya hisobi axborot tizimlarining o'rni va mohiyati, Buxoro MTUda buxgalteriya hisobi axborot tizimlarining holati va tahlili jarayoni ko'rib chiqilgan.

Yakuniy bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobi - "Buxoro mintaqaviy temiryo'l uzeli buxgaltreriya hisobi va axborot tizimlarini tadbiq etish samaradorligi"da Buxgalteriya hisobi va axborot tizimlarida iqtisodiy samaradorlik

ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari, Buxoro MTUda buxgalteriya hisobi axborot tizimlarining iqtisodiy samaradorligini hisoblash va Buxgalteriya hisobi majmuaviy tizimi asosida moliyaviy tahlil qilish jarayoni o'rganilgan.

Yakuniy bitiruv malakaviy ishining so'nggida mavzu yuzasidan asosiy xulosa va takliflar keltirilgan.

I Bob. Buxoro MTUda buxgalteriya hisobi axborot tizimlarining tahlili

1.1. Buxoro MTUda buxgalteriya hisobini yuritish xususiyatlari va hisob siyosati

Buxoro mintaqaviy temiryo'l uzeli (Buxoro MTU) "O'zbekiston temir yo'llari" Davlat Aksiyadorlik Temiryo'l Kompaniyasining ("O'TY" DATK) asosiy tuzilmaviy korxonasi bo'lib, hisob siyosatiga binoan joriy moliyaviy yilda belgilangan tarzda buxgalteriya hisobini yuritadi. Buxoro mintaqaviy temiryo'l uzeli (Buxoro MTU) ning tasdiqlangan hisob siyosatida mazkur korxonadagi buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishga oid barcha qoidalar va ko'rsatmalar bayon etilgan. Korxonaning boshqaruv tuzilmasi 1.1-rasmda keltirilgan.

Korxonada buxgalteriya xizmati chiziqli shaklda tashkil etilgan. Barcha buxgalterlar bevosita bosh buxgalterga bo'ysunadi. Shu tarzda, har bir buxgalter o'z uchastkasi bo'yicha hisob yuritadi va uchastka bo'yicha javobgar hisoblanadi.

Hisob siyosati O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, "Hisob siyosati va moliyaviy natijalar" nomli 1- sonli Buxgalteriya hisobining milliy standarti, O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy-qonuniy hujjatlari talablariga binoan ishlab chiqilgan. Hisob siyosati buxgalteriya hisobini yuritish usullarni, moliyaviy natijalarni tayyorlash va tuzish qoidalarini o'rganadi, shuningdek, "O'TY" DATK korxonalari, tuzilmaviy bo'linmalari foydalanadigan asosiy hujjat hisoblanadi. Hisob siyosatini tuzishdan asosiy maqsad:

- faoliyatning istalgan davrida kapitalni, aktivlarni, majburiyatlarni, daromadlar va xarajatlarni baholash imkoniyatini beruvchi axborot tizimini yaratish;

- “O'TY” DATKda hisob yuritishni unifikatsiyalash va standartlashtirish maqsadida xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobining yagona usullarini qabul qilish;

- har xil foydalanuvchilar uchun amalda o'rnatilgan qonunchilik asosida yagona usullarni qabul qilgan holda to'liq moliyaviy axborot ko'rsatkichlarini shakllantirish;

- “O'TY” DATKda buxgalteriya hisobining butunligini saqlashni ta'minlash.

Tashkiliy tuzilma

Buxgalteriya hisobi natura va pul ko'rinishida mulk, kapital, majburiyatlar va barcha xo'jalik operatsiyalarining uzluksiz, o'zaro bog'liq va hujjatli aks ettirilishi yo'li bilan yuritiladi.

Buxoro MTUda buxgalteriya hisobini hisob siyosatiga binoan yuritish xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1.Buxgalteriya hisobini tashkillashtirish, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda qonunchilikka asoslanganligi ustidan nazorat qilish bo'yicha javobgarlik Buxoro MTU rahbariga yuklatiladi;

2.Buxoro MTU rahbari hisob siyosatining hajmidan kelib chiqib:

a)buxgalteriya xizmatini bosh buxgalter boshchiligidagi tuzilmaviy bo'linma sifatida ta'sis etishi;

b)shartnomaviy asosda jalb etilgan buxgalter xizmatlaridan foydalanishi;

c)shartnomaviy shartlar asosida maxsus buxgalterlik firmasi yoki tarkibiga buxgalteriya hisobi sub'yekti kiruvchi xo'jalik birlashmalarining markazlashtirilgan hisobida buxgalteriya hisobini deligirlash;

d)mustaqil ravishda buxgalteriya hisobini yuritishi mumkin.

3.Buxoro MTU rahbari:

a) ichki hisob va hisobot tizimini ishlab chiqishni;

b) xo'jalik operatsiyalar ustidan nazoratni;

c) to'liq va ishonchli buxgalteriya hisobini;

d) hisob hujjatlarining saqlanishini;

e) tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobot tayyorlanishini;

f) soliq hisoboti va boshqa moliyaviy hujjatlarning tayyorlanishini;

g) hisobotlarning o'z vaqtida topshirilishini ta'minlab berishi shart.

4.Buxoro MTU "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatida buxgalteriya hisobinining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomalar" nomli 21-sonli Buxgalteriya hisobi milly andozasi (BXMA)ga asosan tashish faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan ishchi schyotlar rejasidan foydalanadi. Buxoro MTUda ishchi schotlar rejasi bo'yicha

asosan quyidagi schotlardan foydalaniladi:

- 0100 “Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar”;
- 0200 “Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schotlar”;
- 1000 “Materiallarni hisobga oluvchi schotlar”;
- 2000 “Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schotlar”;
- 2300 “Yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schotlar”;
- 4100 “Ajratilgan bo’linmalardan olinadigan schotlar”;
- 5010 ”Milliy valyutadagi pul mablag’lari”;
- 5110 “Hisob-kitob schoti”;
- 6010 “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to’lanadigan schotlar”;
- 6110 “Ajratilgan bo’linmalarga to’lanadigan schotlar”;
- 6700 “Mehnat haqi bo’yicha xodimlar bilan hisoblashishni hisobga oluvchi schotlar”;
- 9000 “Asosiy faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schotlar”;
- 9400 “Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar”;
- 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” kabi schotlar va boshqalar.

Ular asosida xo’jalik operatsiyalari aks ettirilib , hisobvaraq 4ta subschot va 4ta analitik schotdan iborat bo’ladi. 4ta analitik schot kompaniya va MTUdagi sexlar, korxonalar, xaridor va mol yetkazib beruvchilarning tartiblangan raqamini bildiradi.

Quyidagi 1.2-jadvalda korxonaning analitik schotlari korrespondensiyalanadi:

Korxonada analitik schotlar korrespondensiyasi *

Xo'jalik operatsiyasi	Debet	Kredit
1.Toshkent MTU tomonidan VP Buxoroga "Lend krauzer" avtomashinasini foydalanishga berildi.	20252374	61130036
2.Yuk bo'limi VChD-7 dan asosiy faoliyati uchun inventar va xo'jalik buyumlarini qabul qilib oldi.	20120157	10800002
3.MTuning tibbiy punkti uchun dori-darmon olib kelindi.	94202947	60100798
4.O'tgan yillar xarajatlari hisobdan chiqarildi.	94393897	40100000
5. 1-sex ishchilariga ish haqi to'landi.	67100001	50100001

*Manba: Buxoro MTU ma'lumotlari

Ishchi schyotlar rejasida ko'zda tutilmagan operatsiyalar vujudga kelganida "Moliya va buxgalteriya hisobi" boshqarmasi tomonidan to'ldiriladi. Ishchi schyotlar rejasi Buxoro MTU tomonidan asosiy (tashish) faoliyati bo'yicha bajarilishi majbur bo'lgan hujjat hisoblanadi. Buxoro MTU schyotlardagi analitik kodlarni mustaqil belgilaydi.

5. Buxgalteriya hisobi ikkiyoqlama yozuv usulida hisoblash texnikasi yordamida yuritiladi. Buxoro MTUdagi dastlabki hujjatlar asosan axborot-hisoblash markazining mashina hisoblash stansiyalarida qayta ishlanadi.

6. Xo'jalik operatsiyalarini hisobga oluvchi namunaviy shakllarga ega bo'lmagan dastlabki hujjatlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasiga binoan rasmiylashtiriladigan ichki buxgalteriya hisoboti uchun shakllar kompaniyaning

“Moliya va buxgalteriya hisobi” boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Qayta ishlanadigan namunaviy shakllarga ega bo'lmagan dastlabki hujjatlar kompaniyaning “Moliya va buxgalteriya hisobi” boshqarmasi bilan kelishilgan holda Buxoro MTU rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Buxoro MTU rahbari o'z buyrug'ida mulkning alohida ko'rinishlarini tasarruf qilish huquqi berilgan shaxslarni, shuningdek, moliyaviy, hisob va boshqa hujjatlarda birinchi va ikkinchi imzo huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yhatini beradi.

Xo'jalik operatsiyalari “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonunining 9-moddasiga binoan dastlabki hujjatlarning namunaviy va qat'iy belgilangan shakllaridan foydalangan holda rasmiylashtiriladi. Buxgalteriya hujjatlarining o'z vaqtida tayyorlanishi, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun belgilangan muddatda yetkazib berish, hujjatlardagi ma'lumotlar mazmuni uchun bu hujjatlarni tayyorlagan shaxslar javobgar hisoblanadi. Dastlabki hujjatlar ularni tayyorlagan shaxslar tomonidan imzolanadi. Imzo huquqiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan imzolanmagan hujjatlar haqiqiy emas deb topiladi.

Buxoro MTUdagi asosiy vositalar hisobi “Asosiy vositalar” nomli 5-sonli BHMA va boshqa me'yoriy hujjatlarga ko'ra yuritiladi va dastlabki qiymatida kirim qilinadi.

Asosiy vositalarni kapital, joriy ta'mirlash, shuningdek ularni ish holatida ushlab turish xarajatlari korxona va bo'linmalar xarajatlari bo'lib, asosiy vositalar tannarxiga kiritilmaydi.

Buxoro MTUda asosiy vositalarning barcha turlariga amortizatsiya ajratmalari bir maromli (to'g'ri chiziqli) usul yordamida hisoblanadi. Buxoro MTU boshqa usullardan foydalanishi ham mumkin. Bunda soliqqa tortish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan me'yorlar qo'llaniladi.

Qiymati eng kam ish haqining 200 baravarigacha bo'lgan asosiy vositalarni (harakatlanuvchi tarkib va avtotransport) hisobdan chiqarish korxona tomonidan mustaqil amalga oshiriladi, bo'linmalar esa yuqori tashkilot bilan kelishgan holda.

Qiymati eng kam ish haqining 200 baravaridan ortiq bo'lgan asosiy vositalarni, shuningdek, harakatlanuvchi tarkib va avtotransportni hisobdan chiqarish kompaniya buyrug'iga ko'ra amalga oshiriladi.

Nomoddiy aktivlar - moddiy-buyumlashgan ko'rinishga ega bo'lmagan, xo'jalik faoliyatida ishlatiladigan va ekspluatatsiyada uzoq muddat davomida (bir yildan ortiq) xizmat qilishga mo'ljallangan mulkchilik ob'yektidir. Nomoddiy aktivlar hisobi 7-sonli BHMAga binoan yuritiladi va ularga patentlar, litsenziyalar, intellektual mulk, kompyuter dasturiy ta'minotlari, mualliflik huquqlari, marketing huquqlari, tashkiliy xarajatlar (yangi xo'jalik sub'yektlarini barpo etish xarajatlari) kiradi.

Nomoddiy aktivlarni qayta baholash aktivning bozor qiymatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgandagina o'tkazilishi mumkin.

Nomoddiy aktivning amortizatsiyalanadigan qiymati tizimli ravishda eskirish doimiy summalarini hisoblashning to'g'ri chiziqli usulida taqsimlanadi va quyidagicha hisoblanadi:

- Xizmat qilish muddati besh yildan kam bo'lgan nomoddiy aktivlarga-xizmat qilish muddati bo'yicha;

Xizmat qilish muddatini aniqlab bo'lmaydigan (ammo "O'TY" DATK faoliyati muddatidan uzoq bo'lmagan) nomoddiy aktivlarga - besh yil.

Tovar moddiy zaxiralarining hisobi 4-sonli "Tovar moddiy zaxiralar" BHMAga ko'ra yuritiladi.

Tovar moddiy zaxiralarga quyidagilar kiritiladi:

- Xomashyo va materiallar, yoqilg'i, taralar, ehtiyot qismlar, qurilish materiallari ko'rinishidagi ishlab chiqarish zaxiralari;

- Inventar va xo'jalik buyumlari;

- Sotishga mo'ljallangan tovarlar.

Materiallarni sotib olish va tayyorlash hisoblari xomashyo va materiallarni hisobga oluvchi (1000) va materiallar qiymatidagi og'ishishlar (1600) hisobvaraqlarda yuritiladi.

Ishlab chiqarishga beriladigan tovar moddiy zaxiralaning haqiqatdagi qiymati FIFO usulida (davr bo'yicha birinchi xaridlar tannarxi bo'yicha) aniqlanadi. Materiallarni tabiiy kamayishi bo'yicha hisobdan chiqarishda qonunchilik bilan o'rnatilgan me'yorlardan foydalaniladi.

“O'TY” DATKning qayerida joylashishidan qat'i nazar Buxoro MTUning barcha mol-mulki va barcha turdagi moliyaviy majburiyatlari inventarizatsiya qilinadi. Inventarizatsiya har yili 19-sonli BHMAga ko'ra o'tkaziladi.

Inventarizatsiya quyidagi hollarda o'tkazilishi shart:

- Mulk ijaraga berilganda, sotib olinganda, sotilganda, shuningdek, qonunchilikda ko'zda tutilgan davlat korxonasi tshkil etilganda (davlat tasarrufidan chiqarilganda);
- Yillik moliyaviy hisobot to'ldirilishidan oldin (hisobot yilining 1-oktabridan keyin inventarizatsiya qilingan mol-mulkdan tashqari);
- Mol-mulkni qabul qilish– topshirish vaqtida;
- Moddiy javobgar shaxs almashganida.

Shuningdek, korxona va bo'linmalarga tegishli bo'lmagan, ammo buxgalteriya hisobida hisobga olingan (javobgarlik ostida saqlanayotgan, ijaraga olingan, ta'mirlash uchun olingan) ishlab chiqarish zaxiralari va mol-mulkning boshqa shakllari ham inventarizatsiya qilinadi.

Mol-mulk inventarizatsiyasi joylashgan joyi va moddiy-javobgar shaxslar kesimiga qarab o'tkaziladi.

Pul mablag'lari, pul hujjatlari va qat'iy hisobot blanklari inventarizatsiyasi har oyda o'tkaziladi.

Tovar moddiy zaxiralarning yillik inventarizatsiyasi hisobot oyining 1-oktabr holatiga o'tkaziladi.

Inventarizatsiya natijalari u o'tkazilgan oyning hisobida va hisobotida, yillik inventarizatsiya natijalari esa yillik moliyaviy hisobotda aks ettiriladi.

Inventarizatsiya natijalari (ortiqcha yoki kamomad) taqqoslama qaydnomalarda aks ettiriladi. Taqqoslama qaydnomalarda inventarizatsiya

natijalarini rasmiylashtirish (kirimi, hisobdan chiqarish, aybdor shaxsga yuklash) ko'rsatilgan. Taqqoslama qaydnoma komissiya a'zolarining barchasi tomonidan imzolanadi.

Kassadagi milliy valyutadagi pul mablag'lari hisobi "Yuridik shaxslarning kassa operatsiyalarini yuritish qoidolari" asosida va 5010 - "Milliy valyutadagi pul mablag'lari" hisobvarag'ida yuritiladi.

Naqdsiz pul hisoblari quyidagilarga binoan amalga oshiriladi:

- "O'zbekiston Respublikasida naqdsiz pul hisoblari to'g'risida"gi Nizomga asosan;

- "O'TY" DATK korxonalari hisob raqamlaridan to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga binoan;

- "Markaziy bankning qisqa muddatli kreditlaridan maqsadli moliyalashtirish sxemalari bo'yicha respublika budjetining rejali xarajatlarini moliyalashtirishda foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra.

Buxoro MTUning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha hisobot quyidagi yo'nalishlarda tuziladi:

- Buxgalteriya hisobi;
- Statistika hisobi;
- Soliq hisobi.

Buxoro MTU "O'TY" DATKning korxonalari va ajratilgan bo'linmalari, shuningdek, "O'TY" DATK tarkibiga kiruvchi aksiyadorlik jamiyatlari bilan hisob-kitoblarini 4110 - "Ajratilgan bo'linmalardan olinadigan schotlar" va 6110 - "Ajratilgan bo'linmalarga to'lanadigan schotlar" balans hisobvaraqlarida yuritadi.

Kompaniyaning asosiy faoliyat korxonalari va bo'linmalari bilan kompaniyaning boshqa faoliyati korxonalari o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar 4120 - "Sho'ba va qaram xo'jalik korxonalaridan olinadigan hisoblar" va 6120 - "Sho'ba va qaram xo'jalik korxonalariga beriladigan hisoblar" hisobvaraqlarida olib boriladi.

Bu hisobvaraqlarda yig'ilgan summalar balans tuzilganida va kompaniyada

umumlashtirilganida nazorat qilinadi.

Buxoro MTUni moliyalashtirish ichki o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha qarzi bo'lmagan holda 2003-yilning 19-martida Kompaniya raisi tomonidan tasdiqlangan ““O'TY” DATKning korxonalari va bo'linmalarining xo'jalik-moliyaviy faoliyati to'g'risida”gi Nizomiga ko'ra amalga oshiriladi.

Qarzdorlik bo'lgan holda Buxoro MTU rahbariyati qarzdorlik sabablari ko'rsatilgan va ma'lum muddatga moliyaviy yordam ko'rsatilishi iltimos qilingan doklad taqdim etishlari shart.

Yordamchi-ko'makdosh faoliyatdan olingan daromad va yuridik shaxs bo'lmagan bo'linma xarajatlari o'rtasidagi farq har oyda yuqori tashkilot balansiga o'tkaziladi. Buning natijasida dotatsiya ajratiladi yoki foydasi o'zlashtiriladi.

Xarajatlarni qoplashga ajratilgan dotatsiya 9690-“Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar” hisobvarag'ida aks ettiriladi. Dotatsiya olinganda 9590-“Moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar” hisobvarag'ida ko'rsatiladi. Foyda o'zlashtirilganda teskari provodka beriladi.

Ijtimoiy soha korxonalarini moliyalashtirish tasdiqlangan smeta bo'yicha markazlashtirilgan holda amalga oshiriladi.

Buxoro MTUning soliqqa tortilshi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 3-martidagi №108 ““O'TY” DATKning boshqaruvini tashkillashtirishni mukammallashtirish to'g'risida” gi Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 5-noyabridagi №378 Qarorlariga kiritilgan o'zgartirishlar asosida markazlashtirilgan holda amalga oshiriladi.

Buxoro MTU mahalliy budjetga tushadigan soliqlarni mustaqil ravishda hisoblaydi hamda quyidagi soliq va ajratmalarni to'laydi:

- Yuridik shaxslarning foyda solig'i (faqat hisoblanadi);
- Suv resurslaridan foydalanganlik bo'yicha soliq;
- Yer solig'i;
- Mol-mulk solig'i;
- Yagona ijtimoiy to'lov;

- Ishchilarning ish haqidan majburiy sug'urta ajratmalari;
- Individual yig'ilib boriladigan pensiya schotlariga ajratmalar;
- Amaldagi qonunchilik bo'yicha ishchilarning ish haqidan ularning roziligi bilan kasaba uyushmasiga ushlanmalar.

Ushbu soliqlar bo'yicha hisobot shakllari hisob siyosatiga binoan belgilangan muddatda mahalliy soliq inspeksiyasi va "O'TY" DATK "Moliya va buxgalteriya hisobi" boshqarmasiga topshiriladi.

1.2. Buxoro MTUning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarining tahlili

Buxoro MTU "O'TY" DATK tarkibiga kiradi va belgilangan chegaralarda iste'molchilarga temir yo'l transporti xizmatlarini taqdim etuvchi ishlab chiqarish - xo'jalik kompleksi bo'lib hisoblanadi, u kompaniyaning sho'ba korxonasi bo'lib, tarkibiy bo'linmalardan iborat. Buxoro MTU yuridik shaxs hisoblanib, mustaqil balansga, bank muassasalarida hisob raqamiga, mustaqil buxgalteriya va statistika hisobotlariga ega. Uzel iqtisod va moliya sohasida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Bo'linmalarning xo'jalik boshqaruvini tashkil qilish;
- Uzel tarkibiga kiruvchi barcha bo'linmalarni moliyalashni tashkil qilish;
- Buxgalteriya va statistika hisobini yuritish va o'z moliyaviy-xo'jalik faoliyatining natijalari haqidagi zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish;
- Temir yo'l xizmatlari uchun barcha to'lovlarni o'z vaqtida va to'la undirish hamda ularni kompaniyaning asosiy daromad hisob raqamiga o'tkazish;
- Tashilgan yuklar uchun debitor qarzlarni va ularning tugatilishini nazorat qilish;
- Bekatlardagi yuk-tovar idorasida o'ta muhim bo'lgan hujjat varaqalarini saqlashni ta'minlash;
- Uzel bo'linmalari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining istiqbol ko'rsatkichlarini tuzish;

- Transport texnika vositalarini hamda imorat va inshootlarni ta'mirlashni tashkil qilish;

- Uzel hamda tarkibiy bo'linmalar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining istiqbol rejalarini tuzish va boshqalar.

1.3-jadvalda tahlil qilinayotgan korxonaning xo'jalik-moliyaviy faoliyati daromadlari va moliyaviy natijasi ko'rsatkichlari keltirilgan.

Buxoro MTU 2011yilda o'zining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati natijasida olgan daromadlari jamisi rejaga nisbatan 7530494 ming so'mga bajarilmagan bo'lsa (ya'ni 2.9 % bajarilmagan), o'tgan yil hisobotiga ko'ra esa 51749770 ming so'mga oshirib bajargan (26.3 %).

Tashishlarga nisbatan oladigan bo'lsak:

Yuk tashish bo'yicha daromadlar rejada 203117057 ming so'mni tashkil qilgan va rejaga nisbatan 11496982 ming so'mga kamaygan, ya'ni 5.4 foizga. Yuk tashish bo'yicha daromadlar rejasining bajarilmagani ekspluatatsion tonna-kmlar hajmining 453.059 mln.t-kmga, ya'ni 5.5 %ga bajarilmagani va natijada 10833272 ming so'm olinmagani hisobiga yuz bergan. Shuningdek, daromadlarning bajarilmaganiga poyezdlar harakati jadvalining buzilishi natijasida 553709 ming so'm va turli yig'implarning 110001 ming so'mga bajarilmagani ham sabab bo'lgan.

O'tgan yil hisobotiga ko'ra esa 2011-yilda 47126566 ming so'mga (30.2 %ga) oshirib bajarilgan.

Yo'lovchi tashish bo'yicha daromadlar esa 2011-yilda rejaga nisbatan 295843 ming so'mga, ya'ni 1.1 %ga oshirib bajarilgan.

Buxoro MTUning 2011yil bo'yicha ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyati ko'rsatkichlari (ming so'm) *

Ko'rsatkichlar nomi	2010-yil hisoboti	2011-yil		2011-yil o'zgarishi			
				Mutloq		Nisbiy	
		Reja	Hisobot	Rejaga nisbatan	Hisobotga nisbatan	Rejaga nisbatan	Hisobotga nisbatan
Ekspluatsion tonna-km netto, mln.t-km	7507,75	8235	7781,941	-453,059	274,191	-5.5	3.7
Jami daromad, shu jumladan:	196493699	255773963	248243469	-7530494	51749770	2.9	26,3
Yuk tashish bo'yicha	155990491	214614039	203117057	-11496982	47126566	5.4	30,2
Yo'lovchi tashish bo'yicha	20287006	26329924	26625767	295843	6338761	1,1	31,2
Yordamchi-ko'makdosh faoliyat bo'yicha	20216202	14830000	18500645	3670645	-1715557	24,8	-8.5
Moliyaviy natija	10938199	54098873	30659954	-23438919	19721755	-43.3	180.3

* Manba: Buxoro MTU ning 2011-yil yillik moliyaviy hisoboti ma'lumotlari

Yordamchi ko'makdosh faoliyatdan daromadlar rejaga nisbatan 3670645 ming so'mga oshirib bajarilgan, ya'ni 24.8 % ga. Bu asosan quyidagilar hisobiga amalga oshgan:

- Lokomotiv xo'jaligi bo'yicha jami 2820660 ming so'm: teplovoz xizmati uchun 2038809 ming so'm, teplovozlarni ta'mirlash bo'yicha 19108 ming so'm, manometrlarni ta'mirlash bo'yicha 7038 ming so'm, metallalomga topshirish hisobiga 84531 ming so'm, temir beton mahsulotlari, rukavlar va garmoshkalar tayyorlash hisobiga 57090 ming so'm va registratsion daromadlar 614084 ming so'm.

- Vagon xo'jaligi bo'yicha jami 3821690 ming so'm: vagonlarni ta'mirlash hisobiga 639177 ming so'm, vagonlar xizmati uchun 67422 ming so'm, vagonlar KRPsi uchun 155787 ming so'm, vagonlarni yuvish va parlash, neft mahsulotlaridan tozalash 2638152 ming so'm, metallalomga topshirishdan 110854 ming so'm, ehtiyot qismlarni ta'mirlashdan daromadlar, ko'makchi xo'jalikdan 31722 ming so'm, registratsion daromadlar 114043 ming so'm.

- Yo'l xo'jaligi bo'yicha jami 6091053 ming so'm: shaxobcha yo'llarini ta'mirlashdan 219620 ming so'm, temir yo'k kesishmalarini ta'mirlashdan 28529 ming so'm, metallalom topshirishdan 284899 ming so'm, operatsion daromadlar 5558005 ming so'm.

- Signalizatsiya va aloqa xo'jaligi bo'yicha jami 190852 ming so'm: aloqa xizmati uchun 50405 ming so'm, metallalomga topshirishdan 34480 ming so'm, aloqa kanallari va binolarini ijaraga berishdan 11555 ming so'm, boshqa operatsion daromadlar 94412 ming so'm.

- Elektrta'minot xo'jaligi bo'yicha jami 452842 ming so'm: elektrenergiyani aholiga realizatsiya qilishdan 320051 ming so'm, elektr tarmoqlarini ekspluatatsiya qilishdan 108374 ming so'm, metallalomga topshirish va boshqa operatsion daromadlar 24417 ming so'm.

- Harakat xo'jaligi bo'yicha jami 5123548 ming so'm: VP kranlarini ishlatishdan 14276 ming so'm, ijaraga berishdan daromad 11306 ming so'm,

“Temiryo’lsug’urta”dan 16254 ming so’m, metallalom topshirishdan 6697 ming so’m, avtoyuklagichdan 30713 ming so’m, pulli xizmatlardan 9146 ming so’m, MSS daromadlari 14338 ming so’m, “Navoiyazot” uchun vagonlar tayyorlashdan daromad 94873 ming so’m, ortish-tushirish vositalarini ijaraga berishdan 24374 ming so’m, boshqa operatsion daromadlar 4901571 ming so’m.

O’tgan yil daromadlariga nisbatan yordamchi ko’makdosh faoliyat 1715557 ming so’mga kam daromad olgan, ya’ni faqatgina 8.5 % daromad olgan..

Shunday qilib yakuniy moliyaviy natija rejaga nisbatan 23438919 ming so’mga kam 43.3% i bajarilgan. Shu jumladan tashishlar bo’yicha reja 26774044 ming so’mga bajarilmagan (tashish bo’yicha xarajatlarning 15075905 ming so’mga oshib ketishi hamda tashishlar bo’yicha daromadlarning 11201139 ming so’mga bajarilmagani sababli).

Yordamchi ko’makdosh faoliyatdan daromadlar rejaga nisbatan 2838125 ming so’mga oshirib bajarilgan.

O’tgan yil natijalariga ko’ra 2011-yilda yakuniy moliyaviy natija 19721755 ming so’mga, ya’ni 180.3 % ga oshirib bajarilgan, shu jumladan tashish bo’yicha 22584043 ming so’mga oshirib bajarilgan. Ammo yordamchi ko’makdosh faoliyatdan daromadlar o’tgan yilga nisbatan moliyaviy natijani 2862288 ming so’mga kam bajargan.

Quyida keltirilgan 1.4-jadvalda esa korxonaning hisobot yilining ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyati xarajatlari tahlil qilingan.

Buxoro MTUning 2011-yil bo'yicha ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyati xarajatlari tahlili (ming so'm). *

Xarajatlar elementlari	2010-yil hisobot	2011-yil		2011-yil o'zgarishi			
		Reja	Hisobot	Mutloq		Nisbiy	
				Rejaga nisbatan	Hisobotga nisbatan	Rejaga nisbatan	Hisobotga nisbatan
MHTF	35711180	45773165	45757818	-15347	10046638	-0.1	28,1
Jami moddiy xarajatlar	11346518	11023440	11925602	902162	579084	8,2	5,1
Yoqilg'i	36402120	41031787	43024980	1993193	6622860	4,8	18,2
shu jumladan, tortish uchun	35222279	39729963	41622464	1892501	6400185	4,8	18,2
Eлектроenergiya	730160	791145	879786	88641	149626	11,2	20,5
Amortizatsiya ajratmalari	36216300	44860256	45007211	146955	8790911	0,3	24,3
shu jumladan, yuk vagonlari	5594112	6960000	6973234	13234	1379122	0,2	24,7
Ta'mirlash fondi	7126751	14779011	15654048	875037	8527297	5,9	119,7
boshqa xarajatlar	49225589	31972996	44133973	12160977	-5091616	38	10.3
Jami xarajatlar	185555500	201645090	217583515	15908425	32028015	7,9	17,3

* Manba: Buxoro MTUning 2011-yil yillik moliyaviy hisoboti ma'lumotlari

Buxoro MTU 2011-yilning 12 oyi davomida rejalashtirilgan 201675090 ming so'm xarajat o'rniga 217583515 ming so'm xarajat qilgan, ya'ni xarajatlarning oshishi 15908425 ming so'mni tashkil qilgan, xarajatlar 7.9 % ga oshgan. Bu quyidagi elementlar bo'yicha sodir bo'lgan:

- Mehnatga haq to'lash fondiga ajratmalar rejaga nisbatan 0.1 %ga kamaytirilgan bo'lsada, yani 15347 ming so'mga, 2010-yil hisobotiga ko'ra esa 28.1 % ga oshib ketgan, ya'ni 10046638 ming so'mga;

- Materiallar 902162 ming so'mga ko'p sarflangan, ya'ni 8.2 % ga (TCh Buxoroda akkumulyator batareyalari, radiator seksiyalari, bino reduktorlarining o'rnatilishi; PCh Samarqandda temir-beton shpallarining va shebenning to'ldirilishi hisobiga);

- Elektroenergiyaning rejaga nisbatan 1345.496 ming kVt-soatga ortiqcha sarflanishi natijasida 88641 ming so'm (11.2% ga) ortiqcha xarajat qilingan;

- Yoqilg'i sarfi 1993193 ming so'mga ko'p xarajatr qilingan, ya'ni 4.8 % ga;

- Amortizatsiya ajratmalari 146955 ming so'mga ko'p bo'lib, bu xarajatlarning 0.3 % ga oshishi VChD Buxoroda 435ta yuk vagonlarini modernizatsiyalash va TCh Tinchlikda balansga TO-2 sexi uchun bino olinishi va boshqalar hisobiga kelib chiqqan.

- Boshqa xarajatlarning 12160977 ming so'mga oshishi, ya'ni 38 % ga (solliqlar bo'yicha ortiqcha xarajatlar, ishchilarning xo'jalik chiptalari uchun xarajatlar, ta'mirlash bo'yicha xarajatlar, o'tgan yil operatsiyalari bo'yicha xarajatlar, asosiy vositalarning chiqib ketishidan zararlar, moddiy yordamlar, jarima va penyalar, QQSni korrektirovkalash bo'yicha xarajatlar, Kogon va Samarqand shaharlarini obodonlashtirish ishlariga xarajatlar, MDH va Boltiq bo'yi mamlakatlari vagonlarining me'yordan ortiq saqlanishi bo'yicha chiqimlar, elektrenergiyaning me'yordan ortiq sarflanishi bo'yicha xarajatlar va boshqalar).

O'tgan yilga nisbatan esa xarajatlar 32028015 ming so'mga, ya'ni 17 % ga ortgan.

II Bob. Buxoro MTU da buxgaltreriya hisobi axborot tizimi

2.1. Buxoro mintaqaviy temiryo'l uzeldida buxgaltreriya hisobi axborot tizimlarining o'rni va mohiyati

“O'TY” DATK va Buxoro MTU hisob siyosatida joriy faoliyatning istalgan davrida kapitalni, aktivlarni, majburiyatlarni, daromadlar va xarajatlarni baholash imkoniyatini beruvchi axborot tizimini yaratish ko'zda tutilgan. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda Buxoro MTUda hozirgi davrda ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini ta'minlash uchun, buxgalteriya hisobining yuqori sifatli ko'rsatkichlari, dasturiy usullari va shakllari, ularni tashkil etishda ratsional tamoyillarning mavjud bo'lishi zarur.

Buxoro MTUning iqtisodiy mexanizmini funksionallashtirish jarayonida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va moliyaviy nazoratning o'zaro uzviy bog'liqligi va bunday tizim qaror qabul qiluvchi xodimlarning va xo'jalik faoliyatining o'zaro bog'lanishiga xizmat qiladi (2.1.-rasm).


Buxgalteriya hisobi axboroti korxonada uni tayyorlashda ishtirok etganlarga, korxonadan tashqarida foydalanuvchilarga tushunarli bo'lishi uchun aniq talablarga javob berishi zarur:

- birinchidan, buxgalteriya ma'lumotlari taqqoslash va doimiylik talablarini qondirishi lozim, ya'ni hisob davrida buxgalteriya hisobining har xil turdagi shakllari va usullaridan foydalanib bo'lmaydi;

- ikkinchidan, buxgalteriya ma'lumotlari aniq va ahamiyatli bo'lishi zarur. Vaqtni behuda ahamiyatsiz omillarning hisobiga ketkazish kerak emas, ya'ni agar hisobga olinayotgan manbalar qiymati solishtirma bo'lsa, u holda hisobni soddalashtirish zarur;

- uchinchidan, buxgalteriya hisobi konservativ bo'lishi kerak, chunki buxgalteriya hisobida aks ettiriluvchi xo'jalik faoliyat hodisalari har doim bir xil emas;

- to'rtinchidan, buxgalteriya ma'lumotlari to'liq bo'lishi zarur, unda foydalanuvchi uchun yetarli darajada ma'lumot bo'lishi kerak.




2.1.-rasm. Buxgalteriya hisobi axborot tizimlaridan foydalanish sharoitida korxonani boshqarishning umumlashtiruvchi chizmasi *

Manba: B.A. Begalov, S.M. Sultanova. Buxgalteriya hisobi avtomatlashtirilgan tizimlarini tadqiqot qilish va takomillashtirish. Monografiya. - T., 2009 yil.

Hujjatlarni yaratish, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishhamda ularning aylanmasini ta'minlash vaqt va kenglikka ajratilgan bo'lib, korxonaning integratsiyalashgan axborot tizimining funksional tizimlari yig'indisidan tashkil topgan (2.2.-rasm).

Iqtisodiy ma'lumotlarni ishlash tizimi o'z rivojida bir qancha bosqichlardan o'tadi. Birinchi bosqich - bu ma'lumotlarni qo'lda ishlash usulidir. Bunda hisoblashlar qo'lda yoki yordamchi moslamalar (ashyolar)dan foydalangan holda bajariladi. Bu bosqich hisob-kitoblarning nihoyatda sermehnatliligi,

hujjatlashtirishning kundan kunga ko'payishi bilan tavsiflanadi.



2.2.- rasm.Korxonada integratsiyalashgan axborot tizimlarining funksional tizimchalari tarkibi *

* Manba: B.A. Begalov, S.M. Sultanova. Buxgalteriya hisobi avtomatlashtirilgan tizimlarini tadqiqot qilish va takomillashtirish. Monografiya. T., 2009 yil.

Ma'lumotlarni ishlash tizimi rivojining qo'ldagi bosqichi -iqtisodiy axborotni ishlashni qisman mexanizatsiyalashdir. Bu bosqichning ikki pog'onasi ajratib ko'rsatiladi. Birinchi pog'onada axborotni ishlashning katta qismi qo'lda, ayrim

qismigina klavishli elektron hisoblash mashinalari (KEXM) yordamida bajariladi. Bu pog'onada ma'lumotlarni ishlash usuli va texnologiyasi birinchi bosqichdagiga nisbatan o'zgarmaydi.

Ikkinchi pog'onada axborotning katta qismi elektron hisoblash mashinalari (EHM) yordamida qayta ishlanadi. Bunda axborotni ishlash texnologiyasi muayyan tarzda o'zgaradi, iqtisodiy ma'lumotlar kodlanadi, hisoblashlarning sermehnatliligi nisbatan kamayadi, lekin qo'l mehnati tamoman tugamaydi.

Uchinchi bosqich - bu majmuaviy mexanizatsiyalash bo'lib, bunda axborotni ishlash bo'yicha barcha harakatlar mashinalarda bajariladi. Bu bosqichdagi texnik vositalar majmuiga EHM kiradi. Bunda ildam buxgalter va statistik hisoblarni uzviy birlashtirish ko'zda tutiladi.

To'rtinchi bosqichida ma'lumotlarni ishlashning avtomatlashtirilgan tizimi o'rnini ma'lumotlarni ishlashning shaxsiy elektron hisoblash mashinalardan (ShEHM) foydalanishga asoslangan avtomatlashtirilgan tizimi egallaydi. Qisman avtomatlashtirish bosqichida ayrim vazifalar, uchastkalar yechimi o'zaro bog'lanmay avtomatlashtirilgan ishlarni muvofiqlashtirish va axborotni ishlash jarayonini boshqarishni odam bajaradi.

Beshinchi bosqich - iqtisodiy axborotni ishlashni majmuaviy avtomatlashtirish bo'lib, bunda hisoblash jarayonining yakunlovchi axborotni to'plashdan o'zgartirishgacha bo'lgan barcha ishlari yagona texnologik jarayonni hosil qiladi va avtomatlashtiriladi. Bu bosqichda iqtisodiy axborotni ishlashning avtomatlashtirilgan tizimlari hamda umuman turli daraja va xizmatlardagi boshqaruv avtomatlashtirilgan tizimlari (BAT) paydo bo'ladi.

BAT-bu iqtisodiy axborotlarni qayta ishlashning avtomatlashtirilgan tizimlari (IAQIAT)ni rivojlantirishning eng yuqori darajasi bo'lib, bunda tizim yakunlovchi axborotni berish bilan cheklanadi, qo'yilgan vazifalardan eng ko'p samara olish uchun boshqaruv yechimlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Va nihoyat, o'zi o'rganadigan tizimlar eng yuqori aqliy daraja hisoblanadi. Beshinchi va oltinchi avlod kompyuterlari paydo bo'lishi bilan bunga erishish

mumkin bo'ladi. IAQIATni turli belgilariga ko'ra tavsiflash mumkin. Masalan, boshqaruv darajasiga ko'ra - iqtisodiyot, tarmoq, korxona, ishlab chiqarish uchastkasi darajasida .

Texnologik jarayonning barcha bosqichlari va operatsiyalarida axborot yuqori darajada ishonchli bo'lishi hamda saqlanishi uchun nazorat operatsiyasi amalga oshiriladi (2.3.-jadval). Ma'lumotlarni mashinada ishlash amaliyotida nazoratning ko'z bilan kuzatish nazorati, bevosita qiyoslash nazorati, takrorlash uslubidagi nazorat, nazoratning balans uslubiyati, nazorat jamlanmalari (raqamlari) bo'yicha nazorat va hokazolar qo'llaniladi.

Avtomatlashtirilgan ish joyida har bir operatsiya yoki mashina hujjatiga zamonaviy amaliy dasturlar elektron shakllarni tegishli ravishda tadbiq qilinadi. Buxgalterning asosiy vazifasi zaruriy joylarga kerakli rekvizitlarni kiritish va boshlang'ich ma'lumotlarni to'laligini va haqqoniyligini ta'minlashdan iborat.

Hozirgi davrda Buxoro MTUda barcha buxgalter avtomatlashtirilgan ish joylarida o'rnatilgan amaliy dasturlarda yuqorida ko'rsatilgan funksiyalari bajariladi.

Buxgalter-foydalanuvchi yechadigan masalalar standartlari ro'yxati quyidagi namunaviy ro'yxatidan iborat:

- 1) bank operatsiyalarning hisobi;
- 2) kassa operatsiyalarning hisobi;
- 3) asosiy vositalar hisobi;
- 4) ishlab chiqarish xarajatlar hisobi;
- 5) mehnat va ish haqi hisobi;
- 6) byudjet bilan hisoblar;
- 7) tez eskiruvchi va arzon baholi buyumlar hisobi;
- 8) mahsus kiyimni hisobga olish;
- 9) moddiy boyliklar hisobi;

10) hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar hamda aylanma va saldo balanslarni tuzish.

IAQIAT texnologik jarayonining bosqichlari va operatsiyalarini bajarish usullari

Texnologik jarayon bosqichlari	Operatsiyalar nomi	Operatsiyalarni bajarish usullari
Dastlabki bosqich	1.Boshlang'ich ma'lumotlarni to'plash 2.Boshlang'ich ma'lumotlarni qayd etish 3. Ma'lumotlarni ishlash markaziga uzatish	1.Qo'lda hisoblash; 2.Uzatkichlardan foydalanib avtomatik tarzda hisoblash; 3.Hujjatlardan qo'ldan ko'chirma. 1.Qayd etish vositalardan foydalanib, hujjatlarni shakllantirish; 2.Hujjatlar va mashina tashigichlarni bir vaqtda shakllantirish; 1.Hujjatlarni choparlar orqali jo'natish; 2.Axborotni mashina tashigichlarda choparlar orqali uzatish; 3.Aloqa kanallari bo'yicha bevosita EHMga uzatish.
Yordamchi bosqich	4.EHMda mashina tashigichlarni tayyorlash 5. Manumotlarni EHMga kiritish	1.Ma'lumotlarni hujjatlardan magnit tashigichlarga o'tkazish va ularni nazorat qilish; 1. Klaviatura yordamida xotiraga kiritish; 2.Mashina tashigichdan kiritish; 3.Aloqa kanali orqali berilgan axborotni EHMga avtomatik tarzda kiritish.
Asosiy bosqich	6.Ma'lumotlarni qayta ishlash va yakuniy axborotni chiqarish 7.Yakuniy axborotni uzatish	1. Ma'lumotlarni ishlash va natijani qog'oz bosmaga chiqarish; 2. Ma'lumotlarni ishlash va natijani mashina tashigichlarga chiqarish; 3. Ma'lumotlarni ishlash va natijani videogramma orqali chiqarish; 4. Ma'lumotlarni ishlash va natijani aloqa kanali bo'yicha uzatish uchun chiqarish. 1.Mashinogrammalarni chopar orqali uzatish; 2.Aloqa kanallari orqali ekranga berish; 3. Aloqa kanallari orqali mashina tashigichlarga berish; 4. Aloqa kanallari orqali grafotuzuvchiga berish.

Buxgalter avtomatlashtirish ish joyida pul mablag'larning hisobini, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobini, debitorlar va kreditorlar bilan hisoblarni bevosita yuritish imkoniyati mavjud. Hisob jarayonida avtomatlashtirilgan ravishda barcha to'lov hujjatlarni tayyorlash, belgilangan muddatlarda buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va tayyorlash, bosh kitobini va balans hujjatini (barcha ilovalari bilan) tezkor holda tayyorlash va ishlab chiqish mumkin.

2.2. Buxoro MTUda buxgalteriya hisobi axborot tizimlarining holati va tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining buyrug'iga binoan ““O'TY” DATKda 2008-2015-yillar davrida kompyuterlashtirishni rivojlantirish va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni tadbiq etish dasturi” temir yo'l korxonalarda amalga oshirilmoqda.

Hozirgi paytda temir yo'l kompaniyasida hisob ma'lumotlar yetkazish jarayoni axborot ta'minotining ehtiyojlarini qondira olmayotganini ko'rish mumkin. Shu sababi “O'TY” DATK ma'lumotlar yetkazish tarmog'ini modernizatsiya qilish masalasini ko'ndalang qilib qo'ydi.

Korxona va tashkilotlarda hisob ishlarining samaradorligini oshirish hamda vaqtni tejash maqsadida buxgalteriya hisobining axborot tizimlariga asoslangan elektron shakllari qo'llanilishi boshlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda Buxoro MTUda buxgalteriya hisobi uchastkalari bo'yicha quyidagi BHAT mavjud:

- mehnatga haq to'lash va ish haqi hisobi;
- asosiy vositalarni hisobga olish;
- TMZni hisobga olish;
- YoKF bo'yicha hisobni yuritish va boshqalar.

Ushbu ishlar Mashina Hisoblash Stansiyalarida (MHS) yuritilgan. 2008-yildan beri MHS bilan birga buxgalterning avtomatlashtirilgan ish joyida

axborotlashtirilgan hisob ishlari bajarib kelinmoqda. Bunda Office paketinig Excel dasturidan foydalanilmoqda. Moliyaviy tahlilni elektron jadval va ma'lumotlar bazasini o'zida mujassamlashtirgan tizim orqali amalga oshirish mumkin. Bu tizim elektron jadvalli (EXCEL) dastur ko'rnishida bo'lishi mumkin.

Bunda tahlil uchun dastlabki ma'lumotlarni qo'lda kiritish yoki matnli fayldan ko'chirish mumkin. Ushbu tizimda korxona faoliyati moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Namunaviy usullardan foydalanuvchilar uchun tizimda keng doirada analitik jadvallar o'rnatilgan. Ushbu usullar yordamida:

- korxona mol-mulki tuzilishini;
- to'lov qobiliyatini;
- moliaviy barqarorligini;
- xo'jalik faoliyati rentabelligini;
- qarz mablag'larini jalb qilish siyosatining ratsionalligini;


-foydani taqsimlash va undan foydalanish siyosatining asoslanganligini xarakterlovchi ko'rsatkichlarni hisoblash mumkin.

2010-yilda Buxoro MTUda "1С. Предприятие" amaliy dasturi o'rnatilib, kadrlar tayyorlash boshlangan.

2011-yil iyul boshidan boshlab mahnatga haq to'lash va ish haqi hisobi hamda TMZ hisobi to'liq avtomatlashtirilgan ish joyida olib boriladi. "1С. Предприятие" dasturi har tomonlama mukammal ishlab chiqilgan dastur bo'lib, turli bo'limlar bo'yicha murakkab va tahliliy buxgalterlik hisobini olib borishga mo'ljallangan. Tahliliy hisob tahliliy hisob (subkonto) ob'yektlari bo'yicha natura va qiymat ifodalarda olib boriladi. Dastur schotlarni qo'lda va avtomatlashtirilgan holda xo'jalik o'tkazish imkonini yaratadi. Provodkalarni xo'jalik muomalalar daftarida ko'zdan kechirganda, ularni aniq muddatda chegaralab yoki guruhlab turli parametrlar bo'yicha qidirib topish mumkin. Dasturda erkin hisoblarni shakllantiruvchi, schot qoldiqlari va aylanishlarini qamrab olgan va tahliliy hisob ob'yektlari bo'yicha hisobot shakllari, soliq organlariga taqdim etiluvchi hisobotlar

shakllari o'rin olgan. "1С. Предприятие" amaliy dasturida axborotlarning nusxasini saqlash vazifasi va arxivdagi hujjatlar matnlarini saqlash tartiblari ham mavjud. Mahsulot bilan birgalikda birlamchi hujjatlar to'ldirilgan shakl kengaytirilgan ro'yhati ham taklif etiladi.

Buxoro Mintaqaviy temir yo'l uzeldagi buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumiy qayta ishlash jarayoni (2.4-rasm) mavjud bo'lib, u o'z ichiga ikkita bosqichni oladi: hisob registrlarining shakllantirilishi va hisob registrlaridan foydalanish.



2.4-rasm. Hisob ma'lumotlarini texnologik qayta ishlash jarayoni. *

* Manba: С.М.Султанова, Б.А.Бегалов «Информационные системы бухгалтерского учета: проблемы, поиски, решения», Монография. Т.: «Фан», 2009г

Birinchi bosqichda birlamchi hisob, birlamchi hujjatlar, dastlabki hisob ma'lumotlarini kompyuterga kiritish jarayoni bo'lib, unda hisob uchstkalarining barcha dastlabki hujjatlari: inventar kartochka ma'lumotlari, tabel ma'lumotlari, xodimlarning shaxsiy varaqalari, xo'jalik muomalalarini ro'yxatga olish jurnali va boshqalar kiritiladi. Natijada hisob registrari shakllanib, ma'lumotlar bazasi

yaratiladi. Buxgalteriya hisobining kompyuterlashtirilgan shaklida bir nechta o'zaro bog'langan hisob registrarlari yaratilishi mumkin: buxgalteriya provodkalari, xo'jalik operatsiyalari va birlamchi hujjatlar. Har bir registr ma'lum mantiqiy tizimning ma'lumotlar bazasi hisoblanadi.

Keyingi bosqichda esa korxonada sodir bo'layotgan xo'jalik muomalarini sistematik ravishda ma'lum bir belgilarga qarab guruhlanadi va qayta ishlanadigan ma'lumotlarga so'rov beriladi. Bu bosqichda sistematik ravishda joylashgan hujjatlar analitik va ikkilamchi hujjatlarsifatida qayta ishlanadi, har bir hisob uchastkasi bo'yicha alohida hujjatlar shakllantiriladi. Masalan: asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yhati (inventarizatsionnaya opis'); TMZ bo'yicha hisobot, talabnomalar, schot-fakturalar; ish haqi bo'yicha hisob-to'lov qaydnomalari, to'lov topshiriqnomalari, to'lov talabnomalari va boshqalar.

Buxoro MTUda mehnatga haq to'lash va ish haqi, asosiy vositalar tovar moddiy zaxiralari hamda bank operatsiyalari kabi hisob uchastkalari bo'yicha hisobotlar hozirgi kunda "1С. Предприятие" amaliy dasturi orqali tuziladi. Yillik moliyaviy hisoboti, soliq hisobotlari va statistik hisobotlar tuzish esa Office paketining Excel dasturi orqali amalga oshiriladi.

III Bob. Buxoro MTUda buxgalteriya hisobi va axborot tizimlarini tadbiq etish samaradorligi

3.1.Buxgalteriya hisobi va axborot tizimlarida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari

Buxgalteriya hisobining integratsiyalash tizimi tariqasida birlamchi xo'jalik operatsiyalarini qayd qilishning avtomatlashtirilishi mehnat sarfini kamaytirish va ma'kumotlarning haqqoniyligini oshirish imkonini beradi. O'z navbatida, tizimda qo'llaniladigan ichki nazorat xatolarni kamaytirishga, ma'lumotlar ishonchliligi va aniqlilik darajasini oshirishga olib keladi.

Qo'yilgan masalani yechish uchun buxgalteriya hisobining integratsiyalashgan "Yig'ma hisobot" tizmi ishlab chiqilgan. Tizimni ishlab chiqishda biz markazlashgan holda tuzish variantini tanladik, chunki qog'oz shaklida ma'lumotlar hajmi aylanmasini maksimal kamaytirish maqsadida yagona tizimdagi boshlang'ich buxgalteriya ma'lumotlarni qayta ishlash, barcha hisoblarni yagona tizimga birlashtirish.lozim. .

Tadqiqot natijalari asosida BHATning afzalliklari aniqlandi (3.1-jadval). Tizim quyidagi asoslangan tamoyillar asosida foydalanuvchilar o'rtasida almashinuvni ta'minlaydi:

- Hujjatlarning elektron ko'rinishda almashinuvini tadbiq qilish, tashish va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirishni avtomatlashtirish;
- Birlamchi hujjatlardan axborotlarni bir martada yig'ish, qayta ishlangan axborotlarni saqlash ishonchliligini oshirish, har xil turdagi masalalrni yechishda tizimdagi axborotlardan ko'p marotaba foydalanish;
- Ma'lumotlarni minimal hajmda kiritish, yetishmayotgan ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda me'yoriy-ma'lumotli manbalardan olish;
- Axborotning yuqori darajada haqqoniyligi;
- Real vaqtda ma'lumotlarni olish va qayta ishlash, birlamchi hujjatlarni qayta ishlash tezligini oshirish;

Buxgalteriya hisobi axborot tizimlaridan foydalanish*

BHAT afzalliklari	BHAT xossalari hisobiga erishilgan afzalliklar
1.BHAT foydalanuvchilari uchun	
1.1.BHATga talablar oshishi natijasida investitsiyalarning saqlab qolinishi	Kengaytirilishi, alohida muayyan ilovalarning almashinuvi, miqyoslilik
1.2. Boshqa tizimdagi axborot resurslaridan foydalanish	Integratsiyalash
1.3. Odam-mashina interfesining shakllantirilishi, BHATning boshqa versiyalariga o'tkazishda xodimlarni o'qitish xarajatlarining kamaytirilishi	Foydalanuvchilarga yetib borishi
1.4.Bitta texnik va dasturiy vositalarni yetkazuvchi aloqadorligidan bo'shatilganlik	Ilovalarning yetib borishi
2.BHAT loyihalovchilari va tizimiy integratorlar uchun	
2.1. Har xil amaliy platformalarni qo'llash imkoniyati	Ilovalarning yetib borishi
2.2. Tayyor ilovalardan qayta foydalanish	Ilovalarning yetib borishi
2.3. Mavjud axborot resurslaridan foydalanish imkoniyati	Integratsiyalashga omkin yaratish
2.4. "Meros tizimlar" muammosi yechimini yengillashtirish	Integratsiyalashga omkin yaratish
2.5.BHATni loyihalashtirish va tahlil vositalarining zamonaviy texnologiyalarini qo'llash	Amaliy platformalar o'rtasida ilovalarni tashish
3.Amaliy dasturchilar uchun	
3.1.Amaliy-dasturiy majmualar modulining tashkil etilishi	
3.2.Standartlashgan dasturiy interfeyslarni qo'llash	
3.3. Amaliy dasturlar amkoniyatlarini qo'llash	
4. Texnik va dasturiy vositalarni yetkazib beruvchilar uchun	
4.1. Yangi apparat platformalariga amaliy va tuzilmaviy vositalarini o'tkazish xarajatlarini kamaytirish	Dasturlarning o'tkazilishi
4.2. Ishlab chiqarilayotgan dasturiy mahsulotlarni boshqa mahsulotlar bilan integratsiyalash imkoniyati	Integratsiyalashga imkoniyat yaratish
4.3. Ishlab chiqarilayotgan apparat-dasturiy platformalarning sotilish bozorlarini va qo'llash sohalarini kengaytirish imkoniyatlari	

* Manba: S.M. Sultanova tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

- Tashish jarayonida qatnashuvchilariga, yuk egalariga ko'rsatiladigan axborot xizmatini takomillashtirish;

- Markazlashgan tasnifgichlardan foydalanib, yagona me'yoriy bazani yaratish;
- Tijorat ishlarini avtomatlashtirish uchun kompaniyada qo'llanilayotgan boshqaruv tizimining chiziqli-funksional imkoniyatlarini kengaytirish.

Buxgalteriya hisobining integratsiyalashgan axborot tizimidan foydalanib iqtisodiy samaradorlikning hisoblanishi Moliya va buxgalteriya hisobi boshqarmasi bajargan ishini optimallashtirishga asoslanadi. Asosiy nazarda tutilgan maqsaddan tashqari, tizimni tadbiq etish natijasida quyidagi joriy xarajatlar kamayadi:

- Lavozimlar bo'shatilishi;
- Standartlashgan operatsiyalarni bajarish vaqtining kamayishi;
- Elektrenergiya xarajatlarining kamayishi;
- Kanselariya vositalarini sotib olish xarajatlarining kamayishi.

Ish haqiga yillik xarajatlarning kamayishi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\Delta Z_{3/n} = (n \cdot 3) \cdot 12;$$

bunda: n – bo'shatilgan xodimlar soni;

3 – ularning o'rtacha oylik ish haqlari.

Bo'lim ishlashi uchun bir yilga kanselariya vositalari miqdori belgilanadi.

Ushbu xarajatlarning kamayishi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\Delta Z_{p.m.} = 0,7 \cdot S_{kl};$$

bunda: S_{kl} – kanselariya xarajatlarining yillik summasi;

Elektrenergiyasining ortiqcha xarajati summasi quyidagicha aniqlanadi:

$$E_{yil} = N_{pc} \cdot T,$$

Bunda: T – foydalanuvchi yil davomida me'yordan ortiq ishlagan soatlar.

Agar bo'lim xodimlari o'z ishini o'z vaqtida qilishsa, unda elektrenergiya tejami natijasida xarajatlar kamayishi quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Z_{\text{э.}} = E_{yil} \cdot U_{KB},$$

Bunda: Π_{KB} - 1 kVt-soat elektrenergiyaning narxi.

Jami tadbiiq etilayotgan moliyaviy hisob tizimining yil mobaynida xarajatlari kamayishi summasi:

$$\Delta H_{\Sigma} = \Delta 3_{3/\Pi} + \Delta 3_{p.M.} + \Delta 3_{\Theta\Theta}.$$

bunda: ΔH_{Σ} - umumiy kamaygan xarajatlarning summasi;

$\Delta 3_{\Theta\Theta}$ –Elektrenergiyasini tejash evaziga xarajatlarning kamayish summasi;

$\Delta 3_{p.M.}$ - Devonxona materiallari xarajatlarining kamayish summasi. Yangi BHATni yaratishning yillik samaradorlik ko'rsatkichi quyidagicha hisoblanadi:

$$\Theta_r = \Delta 3 / (E_H + K_p),$$

bunda: $\Delta 3$ – axborot tizimini yaratish va xizmat ko'rsatish xarajatlarining o'zgarishi:

$$\Delta 3 = \Delta H_{\Sigma} - K(E_H + K_p),$$

ΔH_{Σ} .- bo'lim ishi xarajatlarining mutloq o'zgarishi;

E_H –Kapital qo'yolmalarning me'yoriy koeffitsiyenti (kompyuter texnikasi va dasturiy ta'minot uchun 0.15)

K_p – renovatsiya koeffitsiyenti amortizatsiya me'yori sifatida asbobning xizmat muddatini hisobga olgan holda quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$K_p = E_H / (1 + E_H)^{T_{cn}} - 1,$$

Yillik xarajatlarni tejashni t-yil bo'yicha hisoblash capital xarajatlarning o'zini qoplash muddati (T_p) aniqlanadi.

$$T_p = K / \Theta_r$$

Yuqorida keltirilgan usulni aniq korxonada bevosita kompyuter texnologiyalarini tadbiiq etish jarayonida qo'llash mumkin.

3.2. Buxoro MTUda buxgalteriya hisobi axborot tizimlarining iqtisodiy samaradorligini hisoblash

2011-yil iyul boshidan mehnatga haq to'lash va ish haqi hisobi hamda TMZ hisobi to'liq buxgalterning avtomatlashtirilgan ish joyida olib boriladi. Bunda albatta BHATning afzalliklari ko'zga tashlanadi. 3.2-jadvalda Buxoro MTUda mashina hisoblash stansiyasi (MHS) hamda BHAT ya'ni "1С. Предприятие" amaliy dasturiga bir oyda qilinadigan xarajatlarning taqqoslama tahlil ma'lumotlari keltirilgan.

3.2-jadval

Buxoro MTUda MHS hamda BHATga bir oyda qilinadigan asosiy xarajatlarning tahlili *

MHS		“1С. Предприятие”	
I. Moddiy xarajatlar (mln.so’m)			
1.1. Qog’ozda axborot tashuvchilar			
1.1.1. Qog’oz ruloni	1	1.1.1. A4 shaklidagi qog’oz	0.13
1.2. Magnitli axborot tashuvchilar		1.2. Ehtiyot qism	
1.2.1. Matrichnaya lenta	0.5	1.2.1. Printer	0.37
		1.2.2. Kartrij	0.02
II. Mehnatga haq to’lash xarajatlari (mln.so’m)			
2.1. Shtat			
28 kishi	11.2	2 kishi	1.9
III. Yagona ijtimoiy to’lov (mln.so’m)			
x	2.8	x	0.46
IV. Amortizatsiya ajratmalari (mln.so’m)			
4.1. Kompyuter	0.25	4.1. Kompyuter	0.05
4.2. MHS binosi	0.08		
V. Boshqa xarajatlar (mln.so’m)			
5.1. IVO ta’miri	0.03	x	x
MHS bo’yicha jami	16.13	“1С. Предприятие” bo’yicha jami	2.93

* Manba: Buxoro MTU hisoboti

Jadvalda qilingan hisoblanmalar shuni ko'rsatadiki, BHATga qilingan xarajatlar bir oyda MHSga ko'ra 5.5 marta kam. Demak, buxgalteriya hisob

ishlarini samarali yuritishda buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan ish joyini tadbiq etilishi ancha qulay va tejimli, shuningdek, vaqt va mehnat sarfi kam.

3.3. Buxgalteriya hisobi majmuaviy tizimi asosida moliyaviy tahlil qilish jarayoni

Mazkur ishda Buxoro MTUning moliyaviy faoliyatini shaxsiy elektron hisoblash mashinalari(ShEHM) yordamida majmuaviy tahlil qilishning yo'nalishlaridan biri keltirilgan. Korxonaning moliyaviy holati tahlilini o'tkazish texnologiyasi ekspress-modellashtirishning soddalashtirilgan ko'rinishi bo'lib, o'zgaruvchan sharoitlarda ham foydalanuvchilarga o'z kuchi bilan keng ko'lamda namunaviy dasturlar yordamida operativ rejimda hamda kam kuch sarflagan holda tahlil o'tkazish imkoniyatini beradi.

Ushbu uslubiyot buxgalteriya hisobini elektron ko'rinishda yuritish, ya'ni operatsiyalarni yuritish kitobi, joriy davr aylanmalarining har bir schoti bo'yicha va balansni avtomatlashtirilgan tarzda yuritish imkoniyatini beradi. Bu uslub elektron balans ma'lumotlariga asoslanib, korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi elektron ko'rinishdagi ko'rsatkichlar asosida korxonaning moliyaviy ahvolini baholashga yordam beradi.

Zamonaviy tipdagi ShEHMlarni katta hajmda hisob operatsiyalari bo'lmagan hisob ishlarida samarali qo'llash mumkin. Joriy balansning ShEHM asosida avtomatlashtirilgan ish joyida tuzilishi va yuritilishi uni tayyorlash vaqtini qisqartiradi va mehnattalabligini kamaytiradi, "Buxgalteriya hisobi" tizimchasiga kiruvchi barcha masalalarni o'zaro bog'laydi. Buxgalteriya hisobining barcha schotlari bo'yicha "Sintetik va analitik schotlar va ko'zda tutilgan korrespondensiyalar bo'yicha ma'lumotnoma" ko'rinishidagi korrespondensiyalar jadvalidan foydalaniladigan me'yoriy axborotlar fondi shakllantiriladi. Bunday jadval tuzilishida hisobvaraqlar rejasi asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, balans moddalari va satrlari nomlarining EHM xotirasida saqlanishi ko'zda

tutiladi. Buning uchun sintetik schotlar va subschotlar kodlari, xo'jalik operatsiyalarining, bo'limlarning va qoldiq balans satrlarining turlaridan foydalaniladi.

Hisobvaraqlar rejasi va buxgalteriya balans moddolari o'rtasidagi bog'liqlik har bir sintetik schot kodiga balans moddasi raqami to'g'ri keluvchi maxsus jadval yordamida o'rnatiladi va shu asnoda, ShEHM xotirasida balans moddolari ko'rsatkichlari shakllantiriladi.

Buxgalteriya balansini to'ldirishdagi dastlabki ma'lumotlar mashinagarammali registrlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Ular schotlarning analitik va sintetik taqqoslama hisobini doimiy va o'zgaruvchan (dastlabki va yakuniy) massivlar asosida taqdim etadi. Yakuniy massivlarning ko'pchiligi oylik buxgalteriya registrlarini tuzish vaqtida paydo bo'ladi. Shu bilan birgalikda, kompyuter xotirasida aylanma summalarining saqlanishi natijasida chorak, yarim yillik va yillik balanslarni tuzishda zarur bo'lgan ma'lumotlar massivi yig'iladi.

“Bosh kitob” mashinogrammasida korrespondentsiyalashadigan schotlar bo'yicha oborotlar hamda kiruvchi va chiquvchi qoldiqlar chop etiladi.

“Aylanma-saldo balans” mashinogrammasida har bir sintetik schot bo'yicha joriy davr, kiruvchi va chiquvchi qoldiq aylanmalarining yakunlari ko'rsatiladi. Aylanma-saldo balansibalans schotlari bo'yicha registr-mashinogrammalarini va chiquvchi qoldiq summalarni tayyorlashni nazorat qiladi. Shuningdek, u sintetik schotlarning barchasi bo'yichaaylanmalarni solishtirishda ham foydalaniladi.

“Qoldiq balans” mashinogrammasi chiquvchi qoldiqlar massivi asosida chop etiladi. Ushbu massiv analitik hisob registrleri, aylanma qaydnomalar tayyorlanishida avtomatik tarzda, alohida schotlar bo'yicha esa bosh kitob ishlab chiqilganda yaratiladi. Mashinogrammada sintetik hisoblar, balans satr raqamalri va butun massiv bo'yicha yakunlar hisoblab chiqiladi (3.2-jadval). Natijalar ma'umot olish maqsadida va “Korxona balans” – I shaklni to'ldirishda ishlatiladi.

Buxoro MTUning 01.01.2011 yil holatiga Buxgalteriya balansi – 1-sonli shakl
ma'lumotlari (ming so'm) *

Aktiv	satr kodi	yil boshiga	yil oxiriga
1	2	3	4
I. Uzoq muddatli aktivlar			
Asosiy vositalar:			
boshlang'ich qiymati	010	503 542 282,0	612 917 230,0
eskirish summasi	011	148 873 624,0	188 082 960,0
qoldiq qiymat	012	354 668 658,0	424 834 270,0
uzoq muddatli investitsiyalar jami jumladan:	030	68 652,0	110 652,0
Qimmatli qog'ozlar	040	2 408,0	3 408,0
Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar	050	66 244,0	107 244,0
O'rnatiladigan asbob-uskunalar	090	295,0	0,0
Kapital qo'yilmalar	100	4 835 878,0	9 044 219,0
I bo'lim bo'yicha jami	130	359 504 831,0	433 878 489,0
II. Joriy aktivlar			
TMZ jami, shu jumladan:	140	5 197 481,0	5 886 713,0
Kelgusi davr xarajatlari	190	195 841,0	23 586,0
Debitorlar jami	210	123 786 473,0	153 612 871,0
Pul mablag'lari jami	320	330 481,0	528 056,0
Boshqa joriy aktivlar	380	36 513,0	38 755,0
II bo'lim bo'yicha jami	390	129 546 789,0	160 089 981,0
Balans aktivi bo'yicha	360	489 051 620,0	593 968 470,0
Passiv	satr kodi	yil boshiga	yil oxiriga
I. O'z mablag'lari manbalari			
Ustav kapitali	410	34 293 507,0	34 293 507,0
Rezerv kapitali	430	422 414 578,0	524 624 321,0
Taqsimlanmagan foyda	450	22 259 180,0	22 861 244,0
maqsadli tushumlar	460	309 761,0	2 788 076,0

I bo'lim bo'yicha jami	480	479 277 026,0	584 567 148,0
3.2. ;fldfk lfdjvb			
1	2	3	4
II. Majburiyatlar			
Joriy majburiyatlar, jami , jumladan:	600	9 843 246,0	8 285 228,0
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz	610	1 808 033,0	1 865 612,0
Sho'ba va qaram xo'jaliklarga qarz	630	2 757 916,0	490 122,0
Olingan bo'naklar	670	22 137,0	16 454,0
Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz	680	1 213 827,0	1 858 561,0
Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz	700	904 097,0	1 229 435,0
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz	720	1 881 619,0	2 219 588,0
Qisqa muddatli bank kreditlari	730	776 713,0	0,0
boshqa kreditorlik qarzlari	760	478 904,0	605 456,0
II bo'lim bo'yicha jami	770	9 843 246,0	8 285 228,0
Balans passivi bo'yicha jami	780	489 120 272,0	592 852 376,0

*Manba: Buxoro MTU 2010-yil hisoboti

Balansning uchinchi ustuni hisobot davrining boshidagi qoldiq ma'lumotlari asosida va to'rtinchi ustuni hisobot davri oxiridagi qoldiq ma'lumotlariga ko'ra to'ldiriladi. Balans moddalariga bir nechta qoldiq summaları tegishli bo'lishi mumkinligi sababi, aniq moddani shakllantirishda jadvaldan qoldiqlari ma'lum moddaga yig'iladigan schotlarning barcha kodlarini tanlash lozim. Keyin massivdan ushbu summalarni schotlar, subschotlar, analitik hisob moddalariga kodlari bo'yicha yig'ib olish kerak. Balans aktivi va passivi bo'yicha natijalar oraliq natijalar yig'indisi sifatida hisoblanadi (3.3-jadval).

Korxonaning yig'ma ko'rinishdagi analitik balansi (ming so'm) *

Balans moddalari	Hisob-kitob	Hisobot davri boshi	Hisobot davri oxiri
1.Uzoq muddatli aktivlar (F)	A130	359 504 831	433 878 489
2.Joriy aktivlar (Z)	A180	129 546 789	160 089 981
Balans aktivi bo'yicha (B)	A400	489 051 620	593 968 470
1O'z mablag'lari manbalari (H)	II480	479 277 026	584 567 148
2.Majburiyatlar (R)	II770	9 843 246	8 285 228
Balans passivi bo'yicha (B)	P780	489 120 272	592 852 376

*Manba: Buxoro MTU 2010-yil hisoboti

Ushbu jadval Buxoro MTUning 01.01.2011 yil holatiga Buxgalteriya balansi – 1-sonli shakl ma'lumotlari asosida tuzilgan agregatlangan yig'ma balansi bo'lib, unda balans bo'limlari moddalarini shakllantirishda 3.2-jadvaldan qoldiqlari ma'lum moddaga yig'iladigan schotlarning barcha kodlari tanlangan va shu asosda korxona balansi hamda moliyaviy holatini tahlil qilish birmuncha osonlashadi.

3.4-jadvalda 3.2- va 3.3-jadvallardan foydalangan holda taqqoslama analitik balans tuzilgan.

Taqqoslama analitik balans *

Balans moddalari	O'zgarish				Pul mablag'larining o'zgarishi	
	Mutloq		Nisbiy			
	hisobot davri boshiga, ming so'm	hisobot davri oxiriga, ming so'm	hisobot davri boshiga, %	hisobot davri oxiriga,%	Mutloq,ming so'm	Nisbiy , %
1.Uzoq muddatli aktivlar (F)	359 504 831	33 878 489	73,51	73,05	74 373 658	-0,46
2.Joriy aktivlar (Z)	129 546 789	160 089 981	27,03	27,39	30 543 192	0,36
Balans aktivi bo'yicha (B)	489 051 620	593 968 470	100,54	100,43	104 916 850	-0,11
1.O'z mablag'lari manbalari (H)	479 277 026	584 567 148	97,99	98,60	105 290 122	0,61
2.Majburiyatlar (R)	9 843 246	8 285 228	2,01	1,40	-1 558 018	-0,61
Balans passivi bo'yicha (B)	489 120 272	592 852 376	100,00	100,00	103 732 104	0,00

*Manba: Buxoro MTU 2010-yil hisoboti

Taqqoslama balans esa korxona ichida balansda aks ettirilgan axborotdan xo'jalik faoliyatining tahlilida, xarajat va yo'qotishlarni qisqartirish uchun zaxiralarni izlashda, korxona tasarrufida qoluvchi foyda hisobidan to'lanadigan jarimalarni yo'qotishda foydalaniladi. U balansda ko'rsatilmagan rejalar va me'yoriy ko'rsatkichlar bilan solishtirishda muhim ahamiyatli hisoblanadi. Axborot texnologiyalarini takomillashtirish sharoitida boshqaruv qarorlarini qabul qilish vazifasini qo'yish va hal qilish masalasini axborot tizimlari (AT) bajarib,

ularning asosini axborot texnologiyalari tashkil qiladi.

Boshqaruv qarorini qabul qilish jarayoni quyidagilardan iborat:

- axborotni qabul qilish;
- axborotni qayta ishlash;
- boshqaruv qarorini tahlil qilish, tayyorlash va qabul qilish.

Bu jarayonning natijasi bo'lib boshqaruv qarorini tahlil qilish, tayyorlash va qabul qilish hisoblanadi. Boshqaruv qarorining samaradorligi dastlabki ma'lumotlarning qabul qilinishi va qayta ishlash tezkorligiga bog'liq. Buxgalteriya va boshqaruv hisobini avtomatlashtirishning zamonaviy tizimlari yirik hajmda hisobot shakllarini taklif qiladi, ammo ko'rsatkichlarning tahlili foydalanuvchining o'zi tomonidan amalgam oshirilishi kerak. Quyida hisobning istalgan paytida korxonaning moliyaviy holatini majmuaviy ko'rsatkichlar yordmida tezkor tahlil qilish uslubi berilgan. Bu usul EXCEL jadval protsessori asosida ishlab chiqilgan *. Usul bir-biriga bog'langan bir nechta bosqichdan iborat. Ushbu usulning mohiyati shundaki, u korxonaning moliyaviy ahvolini baholashda barcha moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlilidan foydalanadi?? Курсаткчилар автоматлаштирилган tarzda хисобланади (илова 1) . Birinchi bosqichda korxonaning yillik moliyaviy hisoboti ko'rsatkichlari kiritilib, ular asosida ikkinchi bosqichda korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari formulalar asosida hisoblanadi va ushbu hisoblanmalar uchinchi bosqichda istalgan ko'rsatkichni tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Xulosa va takliflar

Bugungi kunda yirik korxonalarda buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish muammosi hozirgi kunning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu avvalambor, katta hajmdagi axborotlarni yig'ish, ularga qayta ishlov berish, tahlil qilish va ulardan boshqaruv qarorlariniqabul qilish vaqtida ratsional foydalanishdan iborat.

2008-yil 9-sentabrda tasdiqlangan muvofiq ““O'TY” DATKni axborotlashtirish to'g'risidagi Dastur”ga temir yo'l transportida o'tkazilayotgan islohotlar va tuzilmaning qayta ko'rib chiqilishi munosabati bilan tarmoqda ishlab chiqarish, texnologik va moliyaviy jarayonlar rivojlanmoqda. Ushbu jarayonlar esa buxgalteriya hisobida zamonaviy axborot tizimli yuqori texnologiyalarni qo'llashni talab etmoqda. Temir yo'l transportida buxgalteriya hisobining integratsiyalashgan axborot tizimini qo'llash, avvalo, buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining aylanmasini tezlashtirish, hisob samarasini oshirish, boshqaruv organlariga haqqoniy ma'lumotlarni tezkorlik bilan yetkazish imkonini beradi.

Yakuniy bitiruv malakaviy ishini yozish davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Korxona moliyaviy-iqtisodiy holati ijobiy bo'lib, ko'rsatkichlarning aksariyati (ekspluatatsion t-km, yuk va yo'lovchi tashish hamda moliyaviy natija) 2010-yil hisobotiga ko'ra ijobiy natija bilan oshirib bajarilgan ;
- Korxonaning moliyaviy natijasi rejaga nisbatan ancha past bajarilgan;
- Korxonada 2011-yilda mehnatga haq to'lash va ish haqi, tovar moddiy zaxiralari, asosiy vositalarning hisob uchastkalari bo'yicha bobuxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan tizimiga o'tildi;
- BHAT bilan oson ishlash uchun buxgalterlar operatorlar yordamida qayta tayyorlandi;
- Korxonada BHATga o'tilishi samarali ekanligi o'z isbotini topdi.
- Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Korxonaning moliyaviy holatini joriy o'rganish va tahlil qilish uchun bitiruv malakaviy ishida Excel jadval protsessori yordamida ishlab chiqilgan korxona moliyaviy holat ko'rsatkichlarini tadbiq qilish;
2. Rejaviy ko'rsatkichlarni korxonaning haqiqiy holatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqish;
3. Yordamchi-ko'makdosh faoliyatni kengaytirish, bu faoliyat turidan keladigan foyda va korxona samarasini oshirish maqsadida kommunikatsion texnologiyalar tizimini kengaytirish va bu sohada servisni yaxshilash;
4. Xodimlar malakasini doimiy oshirish maqsadida maxsus trening kurslarini o'tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 30-avgust, 1996 yil.
- 2.O'zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 11- dekabr, 2003-yil.
- 3."O'zbekiston temir yo'llari" DATK buxgalteriya hisobini korxonalarini kompyutrlash dasturi. - Toshkent, 2-sentabr, 2008 yil.
4. Б.А.Бегалов,С.М.Султанова.«Информационные системы бухгалтерского учета: проблемы, поиски, решения», Монография. - Тошкент: «Фан», 2009 г.
- 5.Р.С.Филимонова. "Практическая работа на 1С:Предприятие". - Ростов на Дону, 2007 г.
6. S.S.G'ulomov, R.X.Alimov. "Axborot tizimlari va texnologiyalari".- - Toshkent, "Sharq" 2000-yil.
7. S.M.Sultanova "Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish". ToshTYMI elektron kutubxonasi. - Toshkent, tashiit.uz
8. Abdullayev R.A. va boshqalar. Iqtisodiy axborotni ishlash avtomatlashtirilgan tizimlari - T.: "Fan", 2005-yil.
- 9.S.S. Gulomov va boshqalar. "Iqtisodiy informatika". T., 2010-yil.
- 10.Axborotlar tizimlari va texnologiyalari /S.S.G'ulomov umumiy tahriri ostida/ Darslik. - T.: "Sharq", 2000-yil.
- 11.Milliy iqtisodda axborot tizimlari va texnologiyalari /akad. S.S.G'ulomovning umumiy tahriri ostida/ O'quv qo'llanma. - T.: "Sharq", 2004-yil.
- 12.Табличный процессор EXCEL. Справочник.- М.:Infra-M, 1998год.
- 13.<http://www.norma.uz>
14. <http://www.buhonline.ru>
15. <http://www.buh.uz>
16. <http://www.glavbuk.ru>